

MO'G'ULLARNING O'RTA OSIYONI ISTILO QILISHI. MO'G'UL ULUSLARI

Siddiqov Husan

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 201-guruh talabasi

Annotatsiya: *Mo'g'ullarning O'rta Osiyoni istilo qilishi va uning oqibatlari, shu bilan bir o'rinda mo'g'ullarning jang paytida olib brogan urush taktikalari haqida qisqacha bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *mo'g'ullar, urug'-aymoqchilik, qurultoy, xoqon, Chingizxon, noib, O'tror qamali, Yasoq solig'i, asir.*

XI-XII asrlarda mo'g'ullar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda qoloq hisoblanar edi. Ularda hali urug'-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lib, asosan chorvachilik, ovchilik va o'zaro tovar ayirboshlash, savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelishgan. XII asr oxiri - XIII asr boshlarida mo'g'ul urug' boshliqlari orasida ichki kurashlar avj oldi. Bu kurashlarda Temuchin ismli bahodir g'olib chiqib, 1204-1205 yillarda ko'chmanchi chorvador urug'larni siyosiy jihatdan birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1206 yilda u Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqirdi. Bu qurultoyda Temuchinga Chingizxon unvoni berildi, ya'ni kuchli, qattiq, shiddatli xon ma'nosini bildirgan. Ana shu tariqa Temuchin ko'p sonli jangari qabilalar saltanatining kuchli hukmdoriga aylandi. Bu saltanat qudratining o'zagini Chingizxon yurgizgan qattiqo'l va huquqiy jihatdan asoslangan, markazlashgan siyosat tashkil etdi.

Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan bu huquqiy siyosat 1206 yildagi qurultoyda qabul qilingan, "Yaso" qonunida asoslab berilgan edi. Ta'kidlash joizki, "Yaso" ko'p yillik hayot tajribasi, qabila va urug'larning urfu-odati, an'anasi, o'zini oqlagan udumlar asosida tuzilgan edi. "Yaso"ning e'lon qilinishi Chingizxonning mutloq hukmdorligini, o'ta qattiq intizomli va kuchli harbiylashgan mamlakatning yuzaga kelganligini isbotlaydi. Mukammal ishlab chiqilgan va harakatga keltirilgan bu ulkan "mashina" o'zga davlatlar uchun jiddiy xavf edi. Chingizxon qo'shinlari turli qismga bo'lingan bo'lib, o'n jangchiga bir boshlik - o'nboshi va shunga o'xshab yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo'yilgan. Davlat unvonlari va mansablar - ulug', o'rta va kichik hokimlar dorug'alar, oliy va quyi hokimlardan iborat bo'lgan.

Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurum edi. Yozuv va o'qishdan bexabar bo'lgan xon bu boradagi davlat ishlarida uyg'urlar va savdogarlar xizmatidan keng foydalanar edi. Chingizxon 1207 yilda o'z mamlakatining shimoliy yerlarini, 1207-1208 yillarda Yenisoy daryosi xavzasini, 1211-15 yillarda Xitoyni egalladi. Ayniqsa, Sin sulolasining qulatilishi va uning natijasida erishilgan behisob harbiy o'lja va boylik, zamonaviy jang asboblari va uskunalar Chingizxon qo'shinini yangi yurishlarga ilhomlantirdi. Mo'g'ullar davlati qisqa muddat ichida O'rta Osiyodagi Xorazmshohlar

davlatiga chegaradosh mamlakatga aylandi. Chingizxon boshchiligida mo'g'ullarning Markaziy Osiyoni bosib olishi ikki bosqichda amalga oshirildi. Asosiy zarba Xorazmshohlar davlatiga qarshi qaratilgan edi. 1218-yilda mo'g'ullar o'zlarining eski dushmani, yaqinda Qoraxitoylar davlatining go'rxoniga aylangan Kuchluk ustidan g'alaba qozonib, natijada Qoraxitoy hududi Mo'g'ullar imperiyasi va Xorazm o'rtasida bo'linib ketadi. O'tror voqeasi va undan keyin Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi, Movarounnahrda Chingizxonning bostirib kirishi uchun bahona bo'ldi.

Bu yurishda Chingizxon dastlab Sharqiy Turkiston va Yettisuvni zabt etdi. Chingizxonning Movarounnahrda bosqini avvaldan puxta tayyorgarlik ko'rib rejalashtirilgan edi. Chingizxon G'arbga harbiy yurishini boshlamasdan o'z dushmanining kuch-qudrati va urushga tayyorgarligi to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarini sinchiklab o'rganib, Xorazmshohlar davlatining ichki ahvolidan to'la voqif edi. Xorazmshohlar davlati ko'p sonli turkiy qo'shin va yaxshi qurollangan ko'ngillilar lashkari hamda yetarli oziq-ovqat zaxirasiga ega edi. Afsuski, Muhammad Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq bunday ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Kengashda fikrlar bo'linib ketdi. Xorazmning mashhur faqihi, muftiy Shahobiddin Xivaqiy barcha qo'shin (400 ming askar)ni Sirdaryo bo'yiga to'plab, uzoq yo'l safarida toliqib kelayotgan mo'g'ullarni qarshi olish, dushmanga hali o'zini o'nglab olmasidan turib, bor kuch bilan katta jangda to'satdan zarba berish to'g'risida birdanbir to'g'ri fikr bayon qiladi.

Biroq Muhammad Xorazmshohga bunday fikr ma'qul bo'lmaydi. Chunki, u o'zining oliy lashkarboshilaridan bo'lgan qipchoq lashkarboshilarga tamoman ishonchsizlik bilan qarar edi. Shuning uchun ham u katta qo'shinni bir joyga to'plashdan va ular fursatdan foydalanib uni taxtdan ag'darib tashlashlaridan qo'rqar edi. Askariy kuchini qal'a va istehkomlarga bo'lib yuborib, ayrim shaharlarni mo'g'ullarga qarshi qo'yish bilan dushmanga zarba bermoqchi bo'ldi. Xorazmshoh mo'g'ullarning asosiy zarbasi Movarounnahrning Zarafshon vodiysiga qaratilsa kerak degan fikr bilan Samarqand va Buxoro shaharlarini mustahkamlashni buyurdi. 1219-yilning kuzida Chingizxon xorazmshoh saltanatiga qarshi yurish boshladi. Jami askari 200 mingga yaqin bo'lgan mo'g'ullarga uyg'ur xoni Idiquit va Olmaliq hukmdori Sig'noq teginlar ham o'zlarining harbiy kuchlari bilan qo'shilgan edi. Chingizxon O'tror shahri yaqinida, Movarounnahr va Xorazmni qisqa muddat ichida zabt etish uchun qo'shinini 4 qismga bo'ladi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'trojni qamal qilish va uni egallash uchun qoldirdi.

Ikkinchi qismga Jo'ji boshliq etilib, Sirdaryo etagi tomon yuboriladi va unga Sig'noq, O'zgan, Barchinlig'kent, Jand, Yangikent va boshqa shaharlarni bosib olishni buyuradi. 5 ming kishilik uchinchi qo'shinni Oloq no'yon hamda Suketu-cherbi qo'mondonligida Banokat va Xo'jand shaharlari tomon yuboradi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan Qizilqum orqali Buxoro tomon lashkar tortadi. Inolchiq rahbarligida o'trorliklar shaharni mudofaa qilib 5 oy davomida o'z qo'llarida ushlab turadilar. Nihoyat mo'g'ullar shaharni egallashga muvaffaq bo'ladi. Aholini shahardan

tashqariga haydab chiqaradilar va qatl etadilar, shaharni esa talaydilar. Shu asnoda Buxoroga yo'nalgan Chingizxonning asosiy kuchlari yo'lda Zarnuq va Nur qal'alarini ishg'ol qiladilar. 1220-yil fevralda Chingizxon Buxoroga yetib boradi.

Mo'g'ullar Buxoroni vayron qilgandan keyin Samarqandga yo'l oldi. Chingizxon Buxorodan haydab keltirgan asirlardan tashqari o'g'illari Chig'atoy va O'qtoylarning O'trordan olib kelgan bandilarini ham Samarqand qamaliga safarbar etadi, Muhammad xorazmshoh Subutoy bahodir va Jebe no'yon bosh bo'lgan mo'g'ul qo'shinining ta'qibidan qochib, Kaspiy dengizining janubidagi orollardan birida panoq topadi va sal vaqt o'tmay g'ariblikda zotiljam kasali bilan vafot etadi. Bu davrda mo'g'ullarning Jo'ji boshliq askariy qismlari Sirdaryo etaklarida bosqinchilik qilmoqda edi. Jo'ji shaharni jangsiz taslim bo'lishini talab qilib, Sig'noqqa elchi sifatida yuborgan Hasanxoja ismli savdogarni sig'nokliklar o'ldiradilar. Bundan darg'azab bo'lgan Jo'ji shaharga hujum boshlaydi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisini bitta qoldirmay qiradi. Bu voqeadan dahshatga tushgan O'zgan shahri aholisi mo'g'ullarga jangsiz taslim bo'ladi, ammo, Barchinlig'kentni olishda yana kuch ishlatadilar. 1220-yil Jandga hujum boshlaydilar.

Jand noibi Qutlug'xon shaharni tashlab Xorazmga qochadi. Bosqinchilar Jandni qarshiliksiz egallab, uni talaydilar. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. Bu vaqtda Oloq no'yon, Suketu cherbi va To'g'ay kabi mo'g'ul sarhaglari 5 ming qo'shin bilan Banokat va Xo'jand shaharlari ustiga yuradi. Banokat himoyachilari qilichdan o'tkazilib, qolganlari qullikka mahkum etiladi. Shahar zabt etilgach, navbat Xo'jandga keladi. Asli nasabi turk bo'lgan Temur Malikning shaxsiy qaxramonligi bilan xo'jandliklar mo'g'ullarga kutilmagan qarshilik ko'rsatadilar. Juvayniy va Rashiduddinlarning asarlarida Xo'jand qamalida 20 ming mo'g'ul va 50 ming asir qatnashganligi aytilgan. Biroq, himoyachilarning kuchi teng bo'lmaganligidan Temur Malik shaharni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi.

1220-yilning yozida Movarounnahr janubida shu vaqtgacha bosib olinmagan shaharlarni zabt etishga Chingizxonning shaxsan o'zi kirishadi. Avval u Nasafga bostirib kiradi. Shaharliklar dahshatga tushib shahar darvozalarini ochib beradilar. U Termizga askar tortadi. Termizning noibi Faxriddin Habash qattiq qarshilik ko'rsatadi. Termiz shahri va aholisi ham mo'g'ullarga qarshilik ko'rsatgan boshqa shaharlar fojiasini boshidan kechirdi. Sirdaryo havzasi, Zaraf-shon va Qashqadaryo vohalari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni xorazmshoxlar davlatining markazi Gurganjga tashlaydi. Bu harbiy kuchni Chingizxonning o'g'illari Jo'jixon, Chig'atoyxon va O'qtoyxonlar boshqaradi.

Xorazmshohlar davlati bosib olingach, mo'g'ul jangarilari o'z kuchini yirik savdo va madaniyat markazlari bo'lmish Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'naltiradi. Ammo bu yerda ular Jaloliddin Manguberdinnt qattiq qarshiligiga uchraydi. Mo'g'ul qo'shinining atoqli jangchilari Jaloliddinga qarshi tura olmaydilar. Mo'g'ullarning Parvon dashtidagi mag'lubiyatidan keyin Chingizxon harbiy harakatlarni shaxsan o'zi boshqaradi. Chingizxon G'aznaga lashkar tortadi. Jaloliddin esa urushsiz Sind (Hind) daryosi sohillariga chekinadi. Daryo bo'yida 1221-yilning

noyabrda ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Mo'g'ullarning pistirmaga qo'ygan 10 ming nafarli saralangan lashkari jang oqibatini hal qiladi. Raqibining jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon uni ta'qib qilish fikridan qaytadi. 1225-yilga kelib, mo'g'ul qo'shinlarining asosiy qismi Mo'g'ulistonga qaytib ketdi.

Mo'g'ullar imperiyasining istilolari keng hududlarning vayron bo'lishiga, ko'plab xalqlarning bosib olinishiga, shaharlar va madaniy yodgorliklarning vayron bo'lishiga olib keldi. Bosib olingan yerlarda Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Hulokuiylar davlati va boshqa davlatlar vujudga keldi. Jo'ji ulusi XIII asrning 40-yillari boshida Jo'jixonning o'g'li Botuxon (1238—1255) tomonidan asos solingan davlat.

1224-yil Jo'ji ulusi Xorazm, Shimoliy Kavkazdan iborat edi. 1236—1240 yillarda Botuxonning yurishlari natijasida Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim, G'arbiy Sibir, Oltin O'rdaga qo'shib olindi. Rus knyazlari Oltin O'rdaga qaram bo'lib, xiroj to'lab turganlar. Rus manbalarida bu davlat Oltin O'rda, Sharq manbalarida Jo'ji ulusi deb atalgan. Oltin O'rda markazi Botuxon davrida Quyi Volgada, Saroy Botu edi. Berkaxon (1255—1266) davrida Saroy Berkaga ko'chirildi. Oltin O'rda XIII asr o'rtalarida erkin yurt sifatida tashkil topgan. 1251-yilning boshida Qoraqorumda Jo'jilar va Tuluyalar quroltoy tashkil qilishadi va Munkeni buyuk xon deb saylashadi. Botu esa <<urug'da eng katta shaxs>> sifatida saylanadi, bu bilan Oltin O'rdaning erkinligi rasman tasdiqlanadi.

Oltin O'rda oldin mo'g'ul xoniga qaram bo'lib, Botuning inisi Berka davrida mustaqillikka erishdi. 1224-yilda Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon va uning vorislari hukmronlik qilgan yerlarni o'z ichiga olgan mo'g'ul, keyinroq turklashgan ulus tashkil topdi. XIII asr oxirlarida xonlik o'zining eng yuqori cho'qqisida Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Mo'g'uliston va Xitoy chegarasidagi Oltoy tog'larigacha cho'zilgan, bu taxminan tugatilgan Qoraxitoylar davlatiga to'g'ri keladi. Yana bir fikrga ko'ra, Chig'atoyxon tugatilgan Qoraxitoy imperiyasiga taxminan mos keladigan hududlar: Issiqko'l, Ili daryosi, Chu daryosi, Talas, Movarounnahr va Tarim havzasini meros qilib oladi. Chig'atoyxon o'z xonligida to'liq mustaqil bo'lmagan va ancha vaqt Qoraqurumdan buyruq olgan. Ko'chmanchilik bilan shug'ullanuvchi mo'g'ullarning o'troq aholini boshqarish tajribasi yo'qligi bois Chig'atoyxon o'ziga tegishli ulusni boshqarishni avval xorazmlik Mahmud Yalavochga, so'ngra uning o'g'li Mas'udbekka (1238—1289) topshiradi. O'zi esa umrining oxirigacha ukasi O'qtoy xon saroyida bosh maslahatchi tarzida faoliyat ko'rsatadi.

Tulixon (1192—1230) — Chingizxonning kenja o'g'li, otasining harbiy ishlar bo'yicha bosh maslahatchisi, sarkarda. Mo'g'ullar davlatining 4 ulusidan birining egasi. Tuli ulusi 50 ming xonadondan iborat bo'lgan. Tuli "yeke no'yon" va "ezden" kabi unvonlar bilan atalgan, u otasi mulkiga merosxo'r bo'lgan. Tuli ulusini o'g'li Huloku davrida katta davlatga aylandi. Yaqin va O'rta Sharqda Mo'g'ullar davlati tanazzulga uchrayotgan paytda tuzilgan davlat (1256—1353). Asoschisi Chingizxonning nevarasi Huloku. Hulokuiylar davlatiga Eron, Afg'oniston va Turkmanistonning ko'p qismi, Zakavkazyening yarmidan ko'pi, Iroq va Kichik Osiyoning sharqiy qismi kirgan.

Hulokuiylar davlati hukmdorlari elxon unvoniga ega bo'lishgan. Gruziya, Trapezund imperiyasi, Ko'niya sultonligi, Kilikiya arman podsholigi, Kipr qirolligi, Kurtlar davlati Hulokuiylar davlatining vassali hisoblangan.

Poytaxti dastlab Marog'a, so'ng Tabriz, keyinchalik Sultoniya bo'lgan. Hulokuiylar davlati Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, mamluklar va salibchilar bilan urush olib borgan. Hulokuiylar davlati Rim papasi, Genuya, Fransiya va Angliya qirollari bilan ittifoq tuzib Misrga qarshi urushgan, lekin mag'lubiyatga uchragan. Hulokuiylar davlatida mo'g'ul va turk ko'chmanchi qabila zodagonlari hukmron siyosiy kuch bo'lgan. Dastlabki elxonlar but-parast bo'lishgan. Hulokuiylar davlatiga kirgan mamlakatlar iqtisodi mo'g'ullar tajovuzi davrida butunlay barbod qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Chingizxon tomonidan istilo qilingan hududlar bevosita vorislari tomonidan boshqariladi. Vorislari davlat tuzumi va boshqaruvini to'g'ri tashkil etmagani sababli ko'plab hududlarni qo'ldan boy berdi. Xususan O'rta Osiyo hududlarini Chig'atoy ulusi tomonidan XIV asr oxirlarigacha idora etildi. Mo'g'ullar bosqining O'rta Osiyoning har tomonlama taraqqiyotdan ortda qolishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mo'g'ullarning bosqini buyuk Xorazmshohlar davlatining qulashiga olib keldi. Istilo nihoyatda og'ir iqtisodiy-madaniy oqibatlariga sabab bo'ldi. Gullab-yashnagan vohalar huvillab qoldi, o'nlab shaharlar butunlay yo'q bo'lib ketdi. IX-XII asrda yaratilgan noyob yodgorlik va me'moriy asori-atiqalar vayron etildi. Arxeolog Vyatkin Buxoro ostonasida topgan 320x70m maydondagi yarim metrlik kul qatlami yondirib yuborilgan yozma manbalar ekanligi aniqlangan. Bu urushda salkam 1 million odam qirilib ketgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бартольд В.В., Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Сочинения, Т.1, М., 1963;
2. Владимирцов В.Я., Общественных строй монголов, Л., 1934;
3. История Монгольской Народной Республики, М., 1954;
4. Чулууни Далай, Монголия в XIII—XIV веках, перевод с монгольского, М., 1983;
5. Семёнов В.Ф., Ўрта асрлар тарихи, [русчадан таржима], Т., 1973.
6. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. — Т., 1996;
7. Абдулғозийхон. Шажараи турк. — Т., 1992;
8. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1-ж. — Т., 1992.